



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 8


LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2024

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Sirojbek Baxtiyarov URBANISTIK JARAYONLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Zebo Ismatullayeva O‘ZBEKISTONNING MADANIY SOHADAGI XALQARO HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI.....	13
3. Надира Махкамова XX АСРНИНГ 30 - ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ИЛМИЙ КАДРЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ.....	20
4. Umrbek Maxmudov AMUDARYO VA SIRDARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING IJTIMOY-IQTISODIY VA ETNO-MADANIY MUNOSABATLAR TARIXI.....	31
5. Фирюза Мухитдинова ИСТОРИЯ МЕДИЦИНЫ И МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА.....	39
6. Ibrohim Nig‘matullayev BUXORO ERONIYLARINING URF-ODAT, AN‘ANA VA MAROSIMLARI.....	44
7. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТ МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИ.....	52
8. Feruza Tadjiyeva XIVA XONLIGIDA QALANDARIYLIK VA UNING IJTIMOY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI.....	59
9. Дилором Чориева ЎЗБЕКИСТОН ТЕАТР МУАССАСАЛАРИНИНГ МАҲАЛЛИЙ ҲАМДА ХОРИЖИЙ МАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ИШТИРОКИ (1991-2016 ЙИЛЛАР).....	64
10. Davlatbek Qudratov O‘ZBEKISTON VA ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI: TURIZM SOHASIDAGI ISTIQBOLLAR VA MUAMMOLAR.....	75
11. Вахромjon Хауназаров O‘RTA ASRLARDA KORTESLAR FAOLIYATINING PIRENEY YARIM OROLIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTIGA TA‘SIRI.....	80
12. Abdulvohid Xursanov ZARAFSHON VOHASI O‘ZBEKLARI URUG‘- QABILAVIY TARKIBINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).....	86



Zebo Shukurjonovna Ismatullayeva,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
Katta o'qituvchisi
Elektron manzil: farhod.ismatullayev@mail.ru

O'ZBEKISTONNING MADANIY SOHADAGI XALQARO HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI

For citation: Zebo Sh. Ismatullaeva. SOME ASPECTS OF UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL COOPERATION IN THE CULTURAL SPHERE. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 8, pp.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro madaniy aloqalari va ularni mamlakat taraqqiyotidagi o'rni masalalari tahlil etilgan. Muallif ushbu aloqalar ayniqsa, Yevropa Ittifoqining rivojlangan davlatlari Germaniya, Latviya, Bolgariya, Belgiya bilan madaniyatning turli sohalari, jumladan, san'at festivallari, madaniyat kunlari, rassomlar ko'rgazmalari, adabiyot, ilmiy konferensiya va kongreslar tashkil etilishi doirasida tashkil etilayotganligini manbalar asosida yoritib bergan. Maqolada O'zbekiston Milliy arxivi materiallaridan ham unumli foydalanilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro madaniy aloqalar, tashqi siyosat, san'at ko'rgazmalari, gumanitar hamkorlik, integratsiya, globallashuv, milliy bayramlar, muzey, adabiyot, musiqa, badiiy ko'rgazmalar, do'stlik jamiyati, madaniy meros.

Зебо Шукурджоновна Исматуллаева,
Ташкентский университет прикладных наук,
старший преподаватель
Электрон манзил: farhod.ismatullayev@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы международных культурных связей Республики Узбекистан и их роль в развитии страны. Согласно источникам, эти отношения установлены с развитыми странами Европейского Союза, Германией, Латвией, Болгарией, Бельгией, в различных сферах культуры, включая фестивали искусства, дни культуры, выставки художников, литературу, научные конференции и конгрессы. В статье эффективно использованы материалы Национального архива Узбекистана.

Ключевые слова: международные культурные связи, внешняя политика, художественные выставки, гуманитарное сотрудничество, интеграция, глобализация,

национальные праздники, музеи, литература, музыка, художественные выставки, общество дружбы, культурное наследие.

Zebo Sh.Ismatullaeva,
Tashkent University of Applied Sciences,
Senior teacher
Elektron manzil: farhod.ismatullayev@mail.ru

SOME ASPECTS OF UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL COOPERATION IN THE CULTURAL SPHERE

ABSTRACT

This article analyzes the International Cultural Relations of the Republic of Uzbekistan and their role in the development of the country. The author highlighted the fact that these relations are organized on the basis of sources, especially within the framework of the organization of various spheres of culture, including art festivals, days of culture, artists visions, literature, scientific conferences and congresses, with the developed countries of the European Union Germany, Latvia, Bulgaria, Belgium. In the article, the materials of the National Archive of Uzbekistan were used effectively.

Index Terms: international cultural relations, foreign policy, art visions, humanitarian cooperation, integration, globalism, national holidays, museums, literature, music, artistic visions, friendship society, cultural heritage.

1. Dolzarbligi:

Hozirgi kunimizda axborot rivojlanib, globallashuv jarayonlari kuchayayotgan, davlatlar o'rtasida integratsiya jarayonlari hamma davrlarga nisbatan hayotiy zaruriyatga aylangan bir davrda madaniy aloqalarning o'rni va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. O'tgan uzoq va yaqin tariximizda siyosiy, iqtisodiy diplomatiyalarda u yoki bu sabab bilan munosabatlar sekinlashuvi va hatto umuman to'xtab qolgan vaziyatlarga guvoh bo'ldik. Ana shunday vaziyatlarda madaniy aloqalarni kuchaytirish, xalq diplomatiyasi vositasi bilangina munosabatlar davom ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining usuvor yo'nalishlaridan biri jahondagi rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, so'nggi yillarda yirik xalqaro tashkilot hisoblangan Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar bilan turli yo'nalishlarda, jumladan, madaniy sohalarida hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. Ushbu aloqalarda Germaniya, Latviya, Bolgariya, Fransiya, Italiya kabi ham iqtisodiy ham madaniy rivojlangan davlatlarni ulushi salmoqlidir.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, analiz, sintez, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda O'zbekiston tashqi siyosatida madaniy aloqalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Maqolani tayyorlashda davriy matbuot nashrlari, ilmiy adabiyotlar, rasmiy ijtimoiy tarmoqlar, turli mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalardan foydalanildi.

O'zbekistonning madaniy hamkorligi, xalq diplomatiyasi vositasida masalalari bu muammoni nazariy jihatdan ko'plab siyosatshunos olimlar tadqiq etgan bo'lib, ularning safiga A. V. Sultanov^[1], L. Babaxodjayeva^[2], E. Nuriddinov^[3], D. Sayfullayev^[4] va M. Rahimovlar^[5]ni kiritish mumkin.

Masalan, L. Babaxodjayevaning ilmiy tadqiqotlarida ko'proq, san'at ko'rgazmalari, xalq amaliy san'ati namunalarini xorijda namoyish etilishi, D. Sayfullayevning ilmiy tadqiqotlarida esa asosan O'zbekistonning madaniy diplomatiyasini shakllanishi va rivojlanishiga oid materiallar taxlil etilganligini ko'rish mumkin.

3. Tadqiqot natijalari:

Madaniy hamkorlik Yevropa Ittifoqining mumtoz davlati bo'lgan Germaniya bilan ham rivojlanib kelmoqda. Bu aloqalar madaniyatning muhim sohalari bo'lgan ko'rgazmalar, festivallar, madaniyat kunlari doirasida ayniqsa, samarali bo'lmoqda. Shu bilan birga muzeylardagi moddiy va ma'naviy me'rosni kelajak avlodlarga yetkazish, xalqaro hamjamiyatga tanishtirish borasida ham hamkorlikda samarali ishlar qilinmoqda. Jumladan, ushbu yo'nalishdagi San'at ko'rgazmalaridan biri 1996-yil Germaniya muzeylarining faoliyati bilan tanishtiruvchi "Buyuk ipak yo'lidagi devorga chizilgan rasmlar" va "Albrext Dyurerning yog'och gravyuralari" nomli ko'rgazmalar O'zbekiston davlat san'at muzeyida uyushtirildi. Hamkorlikning izchil davomi sifatida Qoraqalpog'iston davlat muzeyi kolleksiyasidagi grafik ishlarni 1996-yil bir oy davomida Xemnits san'at muzeyida nemis san'at ixlosmandlariga namoyish etilganligida ham ko'rish mumkin.

O'zbek – nemis madaniy hamkorligi ikki davlatda o'tkazilib kelinayotgan madaniyat kunlari bilan mustahkamlanib kelmoqda[1,324]. Toshkent shahrida tashkil etilgan shunday yirik tadbirlardan biri 1996-yil sentyabrdan to dekabriga qadar davom etgan nemis madaniyat kunlari bo'ldi. Madaniyat kunlari doirasida nemis yoshlari filarmoniyasi, Georg Glazl nomidagi Bovariya kamer musiqa ansambli, "Zinger Pur" vokal ansambli, "M. Voking on ze vota" rok guruhining konsertlari, Ketturket plastika va qo'g'irchoq teatrining spektakllari, organ cholg'uchisi M.Shenxaytning chiqishlari, Germaniya kinosining namoyishi va uning vakillari bilan uchrashuvlar, nemis adabiyotiga bag'ishlangan seminarlar tashkillashtirildi. Tadbir o'zbekistonlik san'at ixlosmanlarida juda katta taassurot qoldirib, nemis xalqi madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishib, hurmatlari yanada oshdi[6]. Shuningdek, Davlat san'at muzeyi va Alisher Navoiy nomidagi davlat kutubxonasiidagi ko'rgazmalar namoyishi, o'zbek va nemis sharqshunoslari, etnograflarining o'zaro uchrashuvlari tashkil etilib, shu sohalarida erishilgan yutuq va tajribalar bilan o'rtoqlashildi. Ushbu tadbir nafaqat Toshkent shahrida, balki respublikaning madaniy markazlari Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Nukus shaharlarida ham ko'tarinki ruhda o'tkazilib, yuksak ehtiromga sazovor bo'ldi.

Germaniyaning Frayburg shahrida 2001-yil 11-iyunida "O'zbekiston kunlari" negizida katta fotoko'rgazma bo'ldi[7]. Bunda O'zbekistonning boy tarixi, mutafakkirlari, arxitekturasi va boshqa madaniy merosi foto ixlosmandlariga taqdim etildi. Ko'rgazma ochilishida germaniyalik olimlar mamlakatning jahon xalqlari ilm-fani va madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan hissasini ta'kidlab, insoniyat sivilizatsiyasidagi munosib o'rni e'tirof etildi.

Ikki tomonlama aloqalarning rivojida 2016-yil 30-martida O'zbekistonga Germaniya federal tashqi ishlar vaziri Frank-Valter Shtaynmayerni, 2019 va 2023 yillardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni Germaniyaga tashriflari ikki va ko'p tomonlama aloqalarni mutlaq yangi sifat bosqichiga ko'tardi[8].

2016-yil 28-30-mart kunlari Germaniyaning Frayburg, Xaydelberg va Offenberq shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi[9]. Uch kun davomida bo'lib o'tgan tadbir dasturlaridan GFR taniqli olimlarining O'zbekiston tarixiy merosi va zamonaviy rivojlanishi hamda Navro'z bayramining o'ziga hosligiga oid ma'ruzalari taqdimotlaridan joy oldi. Tadbirda ishtirok etgan Xaydelberg pedagogika instituti rektori Xans-Varner Xuanke, ikki tomonlama hamkorlikda ilmiy – ma'rifiy yo'nalishlarda ham jiddiy rivojlanib boryotganini ta'kidladi.

So'nggi yillarda Yevropa Ittifoqining yosh a'zolaridan bo'lgan Boltiqbo'yi davlatlari, jumladan, Latviya bilan ham madaniy aloqalar rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning Latviya bilan madaniy aloqalarida musiqa san'atining o'rni ahamiyatga molikdir. Ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishida xalqaro musiqa festivallari o'tkazib turilishi madaniy sohalaridagi hamkorlikning uzviy ravishda rivojlanib, o'zaro aloqalarni yanada taraqqiy etishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

2004-yil Latviya poytaxti Riganing eng so'lim go'shalaridan biri – Kronvolda bog'ida buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek haykali ochilgani ikki xalqning madaniy hayotida katta voqea bo'lgan edi. Latviya zaminida qad rostlagan Mirzo Ulug'bek haykali, 2006-yilning noyabrida esa Sharqda "Shayx ur-rais", Yevropada "Avitsenna" nomlari bilan mashhur bo'lgan mutafakkir Abu Ali Ibn Sino xotirasi uchun o'rnatilgan yodgorlik xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi

mustahkam do'stlikning yorqin timsolidir. Buyuk mutafakkirlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy me'ros zamonaviy madaniy diplomatiyamizning takomilida munosib rol o'ynamoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki 1997-yildan ko'xna Samarqand shaxrida har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronlari" xalqaro musiqa festivaliga Latviya vakillari muntazam ishtirok etib, o'z san'atlari bilan hammani hushnud etib kelishmoqda[10]. Jumladan, 2013-yil 25-30-avgust kunlari Latviyalik qo'shiqchi Diana Pirags va yosh musiqachilar guruhi "Sharq taronalari" IX xalqaro musiqa festivalida o'z chiqishlari bilan ishtirok etib, o'z milliy musiqalarini ijrosi bilan barchada katta taassurot qoldirdilar. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni uzviy davomi sifatida 2019-yil 20-fevralida Toshkent davlat konservatoriyasida mashhur Latish bastakori Emilis Melngaylis ijodiga bag'ishlangan katta konsert dasturini o'tkazilganligida ham ko'rish mumkin. Ushbu madaniy tadbirlarni barchasi san'atsevar xalqimizga jahon musiqa san'ati, jumladan, latish xalqi san'ati, madaniy merosi bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston tashqi madaniy aloqalarida Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham alohida o'rin egallaydi. So'ngi yillarda ko'plab sohalarda, jumladan, turizmni rivojlantirish bo'yicha yuksak natijalarga erishayotgan kurortlar mamlakati bo'lgan Bolgariya bilan ham madaniy aloqalar rivojlanib kelmoqda. Poytaxtimizdagi tasviriy san'at galeriesida 2007-yil 14-aprel kuni Bolgariyalik rassom Boris Staykovning "Yagona osmon ostida" nomli ko'rgazmasi ochildi. Uni Bolgariyaning O'zbekistondagi elchixonasi tashkil etdi. Ko'rgazmadan musavvirning 50 dan ziyod asarlari o'rin olgan. B. Staykov asarlari shu kungacha Yaponiya, Rossiya va Bolgariyada namoyish etilgan edi. Ko'rgazmada o'zbek rassomlari H. Mirzaxmedov, V. Akudin, V. Lukoninlarning Bolgariya haqidagi asarlari ham namoyish qilindi[11]. Albatta, o'zbekistonlik va bolgariyalik rassomlarning hamkorligi istiqbolli bo'lib, u davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarning yanada yuksalishiga hamda xalqlarimiz dunyoqarashi va ruhiyatini rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

O'zbek milliy bayramlari va ularning tarixiga qiziqish ham Yevropa xalqlarida yildan-yilga ortib bormoqda. Ana shunday madaniy aloqalarni mustahkamlash, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish uchun xizmat qiladigan tadbirlardan biri 2007-yil 26-martida Belgiyaning Antverpendagi Berxem madaniyat markazida Navro'z bayramiga bag'ishlangan kecha tashkil etildi. Tadbir O'zbekiston-Belgiya do'stlik jamiyati tomonidan yurtimizning Belgiyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi[12]. Mazkur markaz zalida O'zbekiston xalq amaliy san'ati ustalarining mahsulotlari keng namoyish etilib, tashrif buyurgan mehmonlar o'zbek xalqining boy madaniyati va urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bugungi O'zbekiston va yurtimizda Navro'zning nishonlanishi mavzusiga bag'ishlangan videofilm mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Yig'ilganlar e'tiboriga A.Shadmuratov rahbarligidagi raqs guruxining o'zbek milliy raqslaridan tashkil topgan jo'shqin konsert dasturi namoyish etildi. Milliy musiqa asboblari - doira va do'mbirani yuksak mahorat bilan ijro etgan Belgiyaning "Zamon" folklor guruhi chiqishi esa kechaga yanada fayz bag'ishladi. Ushbu guruh 2005-yilda Samarqand shaxrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida muvaffaqiyatli chiqishi bilan yurtdoshlarimizga yaxshi ma'lum.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, madaniy aloqlarning rivojlantirishda o'zida ming yillik tarixni mujassamlashtirgan, butun insoniyat uchun bebaho durdonalarni saqlab kelayotgan muhtasham muzeylarning o'rni benihoya kattadir. Biz buni jahondagi mashhur Luvr, Britaniya, Leyden, Ermitaj muzeylari misolida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, deyarli barcha yuqori doira vakillarining muzeylarga tashriflarini kuzatishimiz mumkin. Qolovera, Fransiyaga tashrif buyurgan mehmonlar, sayyohlar "Luvr" muzeyini yoki Buyuk Britaniyaga kelganlar esa albatta, "Britaniya" muzeyini ko'rmasdan qaytmaydi. Chunki bu muzeylarda yer yuzidagi ko'plab xalqlarning tarixi, madaniyati, ma'naviyatiga oid noyob yodgorliklar, manbalar saqlanadi. Bundan ko'rinadiki, madaniy osorlari atiqalar, ming yillik tarixdan so'zlab, o'z navbatida ming yillik istiqbollarga ham insoniyatni undab kelmoqda.

Qisqa davrda O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tashabbusi bilan O'zbekistonning jahon muzeylaridagi moddiy va ma'naviy meroslarini aniqlash, o'rganish, jamlash va nashr etish maqsadida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, 2017-yil 14-may kuni Toshkentda "O'zbekiston madaniy merosi – xalqlar va davlatlar o'rtasidagi muloqotga yo'l" mavzuidagi

xalqaro ilmiy madaniy kongres tashkil etildi[13]. Ta'kidlash joizki, mazkur kongress Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosiga qaratilgani bilan ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, ana shu hujjatda xalqimizning boy o'tmishi, madaniy merosini chuqur o'rganish va asrab-avaylash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat hamda elatlar, diniy konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni, yurtimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni va mavqeiini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Madaniy kongressda sharqshunoslik, arxeologiya, tarix, numizmatika, to'qimachilik, kulolchilik sohalariga ixtisoslashgan 120 dan ortiq xorijiy va 100 dan ziyod mahalliy ekspertlar orasida Italiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Gretsiya va boshqa mamlakatlardan kelgan ilm-fan vakillari – mashhur olimlar, muzeylar va ilmiy –tadqiqotlar institutlari rahbarlari ham ishtirok etdilar[14].

Bevosita ushbu loyihada ishtirok etgan tadqiqotchilar tomonidan jahonning ko'plab mamlakatlarida saqlab kelinayotgan yurtimiz tarixi va madaniyatiga tegishli yodgorliklarni o'rganib, ularni fotonushalarini jamlab bir nechta jildli to'plamlar tayyorlandi. Kongres davomida ana shu to'plamlarni yaratishda ishtirok etgan mahalliy va xorijiy olimlarni ma'ruzalari tinglandi. Ushbu to'plamlarga Yevropaning ko'plab davlatlarida saqlanayotgan madaniy me'rosimiz namunlari ham kiritilgan. Jumladan, nashrga tayyorlangan 6 ta jilddan biri, "O'zbekiston gilamdo'zligi: asrlar osha saqlangan an'analar" va "Germaniya muzeylari to'plamlari"ni ham borligi ahamiyatlidir. Bunday ilmiy kongresslarni o'tkazilishi va butun dunyoga yoyilib ketgan o'zbek madaniyatiga tegishli manba va yodgorliklarni o'rganilishi hamda yaxlit to'plam tarzida bir nechta tillarda nashr etilishi olamshumul voqeadir.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida 1996-yil imzolangan Sheriklik va Hamkorlik bitimi asosida mamlakatlararo madaniy aloqalarni yanada jadallashtirish maqsadida respublikada do'stlik jamiyatlari tashkil qilindi. Jumladan, 1998-yil davomida "O'zbekiston – Fransiya", "O'zbekiston – Buyuk Britaniya", "O'zbekiston – Germaniya", "O'zbekiston – Italiya", "O'zbekiston – Polsha", "O'zbekiston – Gretsiya" do'stlik jamiyatlari vujudga keldi va xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga o'zlarining munosib hissasini qo'shib kelmoqdalar[15]. Bunga misol tariqasida, 2022 va 2023 yillarda Yevropaning ko'plab davlatlari, jumladan, Fransiya, Italiya, Germaniyalarda O'zbekiston tarixi, san'ati va madaniyatiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'plab tadbir va ko'rgazmalarni kiritish mumkin.

Hukumatimiz horijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug'ullanib kelayotgan ko'plab olim va adbiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlab kelmoqda. Uning mantiqiy davomini 2018-yil 9-oktyabrda O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganishga munosib hissa qo'shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyondalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui - Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvonini topshirilganligida ko'rish mumkin[16].

Ulardan biri Amin Maaluf o'zining "Samarqand" romani bilan o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lib, uning romani o'zbek tilida 2003-yil "Jahon adabiyoti" jurnalining 6-7, 2005-yilning 7-8-sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Xayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy – siyosiy hayot talqini aks etgan[17]. Bu albatta bir tomondan Fransiyada Sharq tarixiga qiziqish juda katta ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan ularning O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan rag'batlantirilishi xorij olimlarini yanada katta qiziqish bilan vatanimiz tarixi va madaniyatini o'rganishga hamda xalqaro hamjamiyatga yanada kengroq targ'ib etishda katta turtki bo'lishi, shubhasiz.

4. Xulosalar:

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bir bu – Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish etib belgilangan. Shunga muvofiq ko'plab sohalarda, jumladan, madaniyatning turli yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirib kelinmoqda. Madaniyat sohasidagi aloqalar turli yo'nalishlarda jumladan, madaniyat kunlari, san'at ko'rgazmalari, ilmiy konferensiyalar, muzeylararo muloqot, turli festivallar, adabiyot kabi

sohalarda rivojlanib kelmoqda. Bu aloqalar o'z navbatida xalqlarni yaqinlashtirib, davlataro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynamoqda.

Иқтибослар/ Сноски/References:

1. Султанов А. В. Сотрудничество Узбекистана в области культуры с Германией как одно из проявлений духовного взаимообогащения и содействия диалогу культур // Ёшлар тарбиясида толерантлик давр талаби. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б. 324. (Sultanov A.V. The society of Uzbekistan in the field of culture with Germany as one of the manifestations of spiritual mutual enrichment and assistance to dialogue about culture // Tolerance in youth education is the demand of the times. Proceedings of the republic scientific-practical conference. Tashkent: NUU, 2008. – P. 324.)
2. Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2007. – 199 с. (Babakhodzhayeva L. International cultural and humanitarian cooperation of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: Fan, 2007. – 199 p.)
3. Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан // Монография. – Тошкент: Инновация-Зиё, 2021, – С. 398. (Nuriddinov E.Z. Formation and further development at the stage of updating the country of foreign policy activity of the Republic of Uzbekistan // Monograph. – Tashkent: Innovation-Zie, 2021, – P. 398.)
4. Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданият дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. – 96 б. (Saifullaev D. Formation and development of cultural diplomacy of the Republic of Uzbekistan. The author of the dissertation for the degree of Doctor of Science (DSc). Tashkent, 2020. – 96 p.)
5. Рахимов М. Современная история взаимоотношений Узбекистана и стран Центральной Азии с ведущими государствами мира. – Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2016. – 224 с. (Rakhimov M. The modern history of relations between Uzbekistan and the countries of Central Asia with the leading countries of the world. – Tashkent: Adabiyet uchkunlari, 2016. – 224 p.)
6. НА РУз. Национальной Ассоциации международных культурно-просветительских связей Республики Узбекистан // Папка Информации о культурном сотрудничестве между министерством по делам культуры РУз и зарубежными странами. 1995–1999 гг. Фонд– М-7, оп -1, д – 719, л – 30. (National Archive of the Republic of Uzbekistan. National Association of International Cultural and Educational Relations of the Republic of Uzbekistan // Folder information on the cultural community between the Ministry of Cultural Affairs and foreign countries 1995-1999. Fund– M – 7, d -1, d – 719, sh-30.)
7. Ўзбекистоннинг тарихи буюк, келажаги ҳам буюк бўлажак // Ўзбекистон овози. – 2001. – 12 июнь. (The history of Uzbekistan is great, the future is also great future // voice of Uzbekistan. – 2001. - June 12.)
8. Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. – 2016. – 31 март. (Reception in oqsaroy // People's word. – 2016. - March 31.)
9. Германияда Ўзбекистон маданияти кунлари // Халқ сўзи. – 2016. – 30 март. (Days of culture of Uzbekistan in Germany // People's word. – 2016. - March 30.)
10. ЎзР МА. Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги // “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалларида қатнашган ва таклиф этилиши режалаштирилган иштирокчилар ҳамда ижрочилар ҳақида қиёсий маълумот. Фонд – м - 38, рўйхат – 1, жилд – 343. варақ – 4. (National Archives Of The Republic Of Uzbekistan. The Ministry of Culture and sports of the Republic of Uzbekistan // comparative information on participants and performers who have participated and are scheduled to be invited to the international music festivals "taronas of the East". Foundation-m -38, list – 1, volume – 343. sheet -4.)

11. Болгариялик рассом кўргазмаси // Халқ сўзи. – 2007. – 8 май. (Bulgarian artist exhibition // People's word.. – 2007. - May 8.)
12. Бельгияда Наврўз тантанаси // Халқ сўзи. – 2007. – 27 март. (Navruz celebration in Belgium // People's word. – 2007. - 27 March)
13. Ўзбекистон маданий мероси – жаҳон ҳамжамияти эътиборида // Халқ сўзи. – 2017. – 16 май. (Cultural heritage of Uzbekistan-in the attention of the world community // People's word. – 2017. - May 16.)
14. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари, 2017 й., 6- сон. <https:// Lex.uz/docs/3107036>. (The Law of the Republic of Uzbekistan of 2017., 6 years old. <https:// Lex.uz/docs/3107036>.)
15. МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-польские отношения. Сотрудничество в культурно-гуманитарной сфере. <http:// www.mfa.uz>. (Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan // Cooperation of the Republic of Uzbekistan with European countries. Uzbek-Polish relations. Cooperation in the cultural and humanitarian sphere. <http:// www.mfa.uz>.)
16. Ўзбекистон – Франция: узоқ муддатли ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи. - 2018. - 10 октябрь. (Uzbekistan - France: on the way to further expansion and strengthening of long-term cooperation // People's word. - 2018. - October 10th.)
17. Самарқандга ўзгача меҳр кўйган француз ёзувчиси // Халқ сўзи. - 2018. - 11 октябрь. (French writer who has special love for Samarkand // People's word. - 2018. - October 11th.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 8

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000